Support siljish mikdori barabanni konus burchagiga, piltani zichligiga, iplarning chizikli zichligiga, iplarni barabanga uralish zichligiga va barabanni konus mikdoriga bevosita boglikdir.

Chikindilarni kamaytirish va texnologik jarayon utimlaridagi iplar uzunligi muvofikligini ta'minlash uchun piltalab tandalash xisobi bajariladi.

Piltalab tandalash xisobi

Tandalash xisobi quyidagi ma'lumotlar asosida bajariladi:

nt - tanda iplarining soni;

Tip - iplarning chizikli zichligi, teks;

Vt.g- to'quv galtagini gardishlari oraligi, sm;
 Nb - tig nomeri, tish/dm;
 mr - tandalash romining sigimi.

1. Piltalar soni

$$Kl=nt /m$$

Agar Kl kiymatda koldik son chiksa, uni katta tomonga yaxlitlab olinadi.

2. Piltadagi iplar soni

$$m=nt/Kl$$

3. Bitta piltaning eni

$$Vp=Vt.g / Kl$$

4. Piltadagi iplarning zichligi, ip/sm

$$P=m/ Vp$$

5. Support tigi tishlarini soni

$$Z= Vp \cdot N_{\text{tig}}/10$$

6. Bir tig tishidan utadigan iplar soni

$$Z1=ml/z$$

7. To'quv galtagiga uralgan iplarning xajmi, sm³;

$$V = N(Du^2 - du^2)$$

8. To'quv galtagiga uralgan ip ogirligi, kg;

$$G=V \cdot \rho /10^3$$

9. To'quv galtagiga uralgan ip uzunligi, m

$$L = G \cdot 10^6 / nt \cdot Tip$$

Piltalab tandalash usulining afzalligi: jarayonda chikindi kamligi, kuprangli va murakkab rapportli tanda iplarini tayyorlash imkoniyatiga egaligi.

Kamchiligi: piltalab tandalash mashinalarining unumdorligi past.

Tandalash mashinalarining unumdorligi.

1. Guruxlab tandalash mashinasining unumdorligi

$$A = \frac{Vt \cdot mt \cdot r \cdot 60}{10^6} \cdot FVK \cdot \text{kg/soat}$$

Vt - tandalash mashinasining urtacha tezligi, m/min;

mt.g- tanda galtagidagi iplarning soni;

Tip - iplarning chizikli zichligi, teks;

FVK - foydali vakt koefficienti (0,4 - 0,5).

2. Piltalab tandalash mashinalari unumdorligi

$$Vt \cdot V_{kpt} \cdot Tip \cdot 60$$

$$A_x = \frac{FVK}{(V_t + K_l V_t) \cdot 10^6} \text{ kg/soat}$$

V_t - tandalash tezligi, m/min;

V_k - qayta o'rash tezligi, m/min;

K_l - piltalar soni;

n_t - tanda iplari soni;

T_{ip} - ipning chizikli zichligi, teks;

FVK - foydali vakt koefficienti (0,25 - 0,3).

Tandalash tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$V_t = \frac{\pi (D_b + D_u/2) n_b}{60}$$

D_b - tandalash barabani diametri, m;

D_u - o'rama diametri, m;

n_b - barabanning aylanishlar soni, ob/min.

Tanda ipini to'quv galtagiga qayta o'rash tezligi

$$V_k = \frac{\pi (D_u + D_{uz}/2) n_t \cdot g}{60}$$

D_n - to'quv galtagidagi o'rama diametri, m;

d_{uz} - to'quv galtagi uzagi diametri, m;

$n_t \cdot g$ - to'quv galtagini aylanishlari soni.

Tandalash jarayonining texnologik omillari

1. Tandalash tezligi (tolaning naviga va tandaning sifatiga qarab olinadi).
2. Iplarning tarangligi (taranglovchi moslamadagi shaybalar soni bilan rostdlanadi).
3. O'rama zichligi (iplarning turiga va chizikli zichligiga bogliq).
4. Tandalash galtagidagi iplarni muvofik uzunligi.
5. Iplarni uzilishi.

Tandalash jarayonidagi chikindilar

Iplar uzilganda, bobinalarni urnatish vaktida va ulardagi koldik iplar xisobiga tandalash jarayonida chikindilar chikadi. Uzluksiz tandalash usulidagi chikindilar miqdori quyidagicha topiladi:

$$L_1 + L_2 + L_3 \cdot K_b$$

$$U_s = \frac{L \cdot b}{ChL \cdot b} \cdot 100$$

$$L \cdot b$$

$$ChL \cdot b$$

$$K_b = \frac{1000000}{1000000}$$

$$1000000$$

L_1 -tugagan babinani almashtirishda saflanadigan ip miqdori $L_2=2-5m$.

L_3 -uzilgan iplarni boglashda sarflanadigan ip miqdori $L_3=0.5-1.5m$.

K_b -birta babinaga tugri keladigan uzilishlar soni

Ch - 10^6 m. Yakka ipning uzilish soni.

Tandalash jarayonida uchraydigan nuqsonlar

1. To'quv galtagida iplarning etmay kolishi;
2. Xar xil navli iplarni almashtirib yuborilishi;
3. O`rama shaklining buzilishi;
4. Iplarning tarangligini notekisligi;
5. Piltalar uzunligini nomuvofikligi.

TAKRORLASH UChUN SAVOLLAR.

1. *Kaysi xollarda pitalab tandalash kullaniladi?*
2. *Pitalab tandalash moxiyati nimadan iborat?*
3. *Pitalab talash mashinasining texnologik sxemasini chizing, tushuntirib uting?*
4. *Taranglovchi maslamasining vazifasi?*
5. *Pitalab tandalangan galtakka uralgan ip xajmi kanday topiladi?*
6. *Galtakdagi ip uzunligi va ogirligi kanday?*
7. *Tandalash jarayonining texnologik parametrlari kanaka?*
8. *Tandalash jarayonidagi chikindilar kanday topiladi?*
9. *Tandalashda uchraydigan nuqsonlar kanaka buladi?*
10. *Tandalash mashinalarining nazariy va xakikiy ish unumdorliklari kanday topiladi?*

TAYaNCh IBORALAR:

Pilta, tanda, ip, galtak, uzunlik, xajm, ogirlik, jarayon, Bennenger, Xakkoba, tig, val, to'quv navoyi, chirmash dastgoxi.

ADABIETLAR.

1. V.A. Gordeev, P.V. Volkov «Tkachestva» –M.Legkaya industriya. 1984 y. 88-102 bet.
2. R.I. Sumarakova, S.D. Nikolaev i dr. – Texnologiya tkackogo risunka, teorii perepleteniy, patronirovanie. M.M.I. 1984 y. 27-30 betlar.
3. P.A. Aleshin, V.I. Poletaev – Laboratorniuy praktikum po tkachestvu M.,Legkaya industriya 1979 y. 55-70 betlar.
4. Rozanov F.M. i dr. – Texnologiya kachestva, chast` 1, M, L.I., 1966 y. 105-124 betlar.

4-TAJRIBA ISHI

IPLARNI OXORLASH JARAYONINI URGANISH

Mashgulot o'tkazishdan maqsad:

Oxorlash jarayoniga va oxorga kuyiladigan talablarni urganish. Oxor maxsulotlari tarkibini urganish. Oxor sifatini tekshirish.

Kerakli jixozlar:

Oxor tayyorlash uchun recept tarkibi: KMC, PVS, PAA, kraxmal, un, glicerin, kuppik yukotuvchi modda (BA, BK).

Mashgulot mazmuni:

Oxor maxsulotlari recept asosida tanlanib, oxor kaynatish kozonida kaynatiladi. Sifati uni tashki kurinishi va fizik ximiyaviy xususiyatlariga karab aniklanadi.

To'quv dastgoxida tukima xosil bulish jarayonida tanda iplari xar xil mikdordagi ishkalanish va mexanik kuchlari ta'sirida deformaciyaga uchraydi (chuzilish, egilish, va x.k.) Bu kuchlar ta'sirida iplarni xususiyati buziladi va natijada ularni uzilishi kupayadi. Buni oldini olish uchun tanda iplarga maxsus ishlov beriladi, ya'ni ularni sirti yupka oxor plenkasi bilan koplanadi.

Oxorlash jarayonining maqsadi shundan iboratki: tanda iplarining sirtini yupka plenka koplash yuli bilan ularni sillikligini pishikligini oshirish; tandani eni buylab bir xil zichlida va bir tekisda to'quv galtagiga o'rash.

Kupincha paxta, zigir, jun, qayta taralgan va sun'iy toladan tayyorlangan tanda iplari oxorlash jarayonidan utadi. Sintetik iplari va apparat usulida yigirilgan iplar esa emulciyadan utadi. Tabiiy ipak iplari va buralgan (pishitilgan) ayrim iplar, texnik kursatmalar uchun tayyorlangan kimeviy iplar oxorlash jarayonidan utmaydi.

Oxorlash jarayonida kuyidagi ishlar bajariladi:

1. Oxor tayyorlash (kimeviy jarayon)
2. Iplarga oxorni singdirish.
3. Iplardan oxorni sikish
4. Kuritish
5. Kurigan iplarni to'quv galtagiga paralel o'rash.

Oxorlash jarayoniga kuyidagi talablar kuyiladi;

1. Ip tolalarini uzagiga pishik kilib epishtirish.
2. Ipni sillik sirtli qilish .
3. Jarayon davomida iplarni chuzilishi belgilangan me'erdan oshmasligi va iplarda pastik chuzilish xosil bulmasligi kerak
4. Chikindi mikdori kam bulishi kerak.

5. To'quv galtagiga maksimal mikdorda ip ip uralishi va u dastgox konstrukciyasiga mos kelishi kerak
6. Tanda galtagini saklash joylarida iplarni fizik –mexanik xususiyatlari uzgarmasligi kerak

Bu talablarni kondirish uchun oxorga quyidagi talablar quyilari:

1. Tarkibida epishkok moddalar bulishi kerak,oxor ma`lum mikdorda kuyuk bulishi va kurigandan keyin ipning sirtida plenka xosil kiluvchi xossaga ega bulishi kerak.
2. moddalar bulishi kerak,oxor ma`lum mikdorda kuyuk bulishi va kurigandan keyin ipning sirtida plenka xosil kiluvchi xossaga ega bulishi kerak.
3. Tayyor oxor rangsiz tinik modda bulishi kerak.
4. To'quv dastgoxida tanda iplarida oxor plenkalari titilib, tushib ketmasligi kerak.
5. Oxor tukimadan tez va engil yuvilishi kerak
6. Oxorga ishlatiladigan xom ashelar arzon bulishi va tankis bulmasligi kerak.
7. Oxor bilan ip kimeviy reaksiyaga kirishmasligi kerak.

Oxor tayyorlashda quyidagi moddalar ishlatiladi: Elimlovchi moddalar parchalovchilar, yumshatgichlar, antistatiklar, gidroskopik moddalar, mogorlatmovchilar, erituvchi moddalar, kupik yukotuvchi moddalar.

Elimlovchi moddalar.-sifatida tabiiy va sintetik polimerlar ishlatiladi. Tabiiy polimerlarga kraxmallar (kartoshka, bugdoy, makkajuxori kraxmallari), jelatina ozik-ovkat sanoati chikindilaridan va xayvon suyaklaridan tayyorlangan unlar kiradi. Ozik-ovkat maxsulotlari urnida cellyuloza efiri karboksil metilcelluloza (KMC), sintetik polimerlardan polivinil spirti (PVS), poliakrilamid (PAA) ishlatiladi.

Paxta iplarini tukish tukish uchun oxorlashda PVS kullaniladi. PVS ok rangli poroshok bulib, 95-98 S xaroratdagi suvda aralashtirib tayyorlanadi. 0.5 tonna PVS 1 tonna kraxmalning urnini bosadi.

Paxta iplarini va viskoza – shtapel` tolasidan tayyorlangan iplarni oxorlashda KMC ishlatiladi. KMC – kurinishi govak xoldagi maxsulot bulib, krem rangga ega buladi. Oxor tayyorlashda 70-80 S xaroratdagi suvga KMC sepiladi va va tulik erishi uchun 1,5 soat aralashtiriladi. 0.9 tonna KMC 1tonna kraxmal urnini bosadi.

Bo`rama jun iplarni oxorlashda PAA,PVC va kraxmaldan tayyorlangan oxorlar ishlatiladi. Ipak iplarni oxorlashda PVC-Sh va F markali, PAA (8%li), KMC va tayyor kmieviy preparatlar BEVALOID-400, BEVALOID-40RE va T-8, sovun va glicerini kushilgan jelatina ishlatiladi.

Parchalovchi moddalar.- oxor tarkibidagi kraxmal molekulalarini maydalab, suvda erishini ta`minlash uchun ishlatiladi. Bu moddalarga xar xil kislotalar, ishkorlar va xloramin kiradi. Ishlab chikarishda asosan xloramin (tarkibida 30% gacha aktiv xlor bo`lgan va 80 S da eriy oladigan) ishlatiladi.

Yumshatuvchi moddalar –oxorga 0,1-0,15 g/ mikdorda kushiladi va oxorni iplarga yaxshi singishi, ularning egiluvchanlik xususiyatini yukotmasligi uchun ishlatiladi. Ularga xar xil eglar (paxta, zigir), glicerin, jelatin, suyuq parafin kiradi.

Anticeptik moddalar-iplarnng elektrizatsiyaga uchramasligi uchun ishlatiladi . Bu moddalarga – mis kuparosi, fenol, formalin va boshkalar kiradi.

Mogorlatmovchi moddalar- oxor yuzasida mikroorganizmlar rivojlanmasligi (kraxmaldan foydalanilganda) va ipni chirib ketmasligi uchun ishlatiladi.

Zararsizlantiruvchi modda sifatida kumush kuparosi, fenol, bor kislotasi ishlatiladi.

Kupik yukotuvchi moddalar-oxorga 0.1-0.15 g/m mkdorda ishlatiladi va u oxor yuzasida kupik xosill bulmasligi uchun ishlatilib, skipidar organik kremniy preparati (PMS-15, PMS-200 A), kupik yukotuvchi (BA,BK) lar ishlatiladi. erituvchi sifatida yumshok suv ishlatiladi. Suvning kattikligini 5-6 mg ekv/l dan ortib ketmasligi kerak.

Oxor recepti chizikli zichligi 18,5-25,0 teksdagi iplar uchun

№ ! Oxor tarkibi 1000 litrda	! Mikdor
1.Un, kg	! 50
Kartoshka kraxmali, kg	! 20-30
Xloramin, g	! 440-500
Paxta egi, g	! 200-300
Uyuvchi natriy 100% li, g	! 350-400

2.! Un, kg	! 50
! Makajuxori kraxmali, kg	! 20-30
! Xloramin, g	! 540-610
! Paxta egi, g	! 300
! Uyuvchi natriy 100% li, g	! 350-400

3.! PVS,kg	! 28-32
4.! KMC,kg	! 48-53
5.! PAA,kg	! 40

Oxor maxus joyda tayyorlanib, u joy «Oxorxona» deyiladi.

Oxor tayyorlash usullari.

1. Mexanik
2. Termo mexanik
3. Akustik
4. Avtomatik

Oxor xonada oxor kozoni va oxor tayyorlash uskunalari bulib, oxor sifatini nazorat qilish rostlagichlari erdamida oxor tayyorlash xarorati ($T=100S$), uni isitish xarorati ($T=40 S$), saklash xarorati ($T=90-95 S$) kabi parametrlar xar doim kuzatilib turiladi.

Oxor sifatini tekshirish.

Oxor sifati uni tashki kurinishi va fizik-kimeviy xususiyatlariga karab aniklanadi. Oxorni tashki kurinishi buyicha tinik va mayda bulakchalarsiz bulishi kerak. Oxorning fizik-kimeviy xossasini tekshirishda oxor tarkibining reakciyasi tekshiriladi. Unda reakciya neytral bulishi kerak.

Tanda ipiga oxorning singishi xamda uziga olish kobiliyati oxor kovushkokligi (V) deyiladi va uni viskozimetr erdamida aniklanib, bunda oxor okib ketish vaktini suv okib ketish vaktiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$V = t_{ox} / t_{suv}$$

t_{ox} -kovushkoklikni aniklash ishidagi oxorning okib ketishi uchun ketgan vakt, sek;

t_{cuv} -shu xajmdagi suvning okib ketishi uchun ketgan vakt, sek.

Oxor komponentlari mikdorini umumiy oxor xajmiga nisbati shu moddaning koncentraciyasi deyiladi. Oxorning koncentraciyasi (K) elimlovchi modda ogirligini oxor xajmiga nisbati bilan aniklanadi:

$$K = G(100-W) / V, \%$$

G -elimlovchi modda ogirligi, kg

W -elimlovchi modda namligi, %

V -oxor xajmi, kg.

TAKRORLASH UChUN SAVOLLAR.

1. *Oxorlash jarayoni maqsadi nimadan iborat?*
2. *Oxorlash jarayoniga va oxorga kuyilgan talablar nimadan iborat?*
3. *Oxor receptiga kanaka maxsulotlar kiradi?*
4. *Elimlovchi moddalarga nimalar kiradi?*
5. *Parchalovchi moddalarga nimalar kiradi?*
6. *Antiseptik va mogorlatmovchi moddalarga nimalar kiradi?*
7. *Oxor tayyorlashning kanaka usullari bor?*
8. *Oxor sifati kanday tekshiriladi?*
9. *Kupik yukotuvchi moddalarga nimalar kiradi?*
10. *Oxorning koncentraciyasi kanday aniklanadi?*

TAYaNCh IBORALAR:

Oxor, to'quv navayi, elim, parchalovchi, PAA, KMC, PVS, yumshatuvchi, antiseptik, mogorlatmovchi, kupik yukotuvchi, kraxmal, xloramin, paxta egi, uyuvchi natrit, koncentraciya, modda.

ADABIETLAR.

1. V.A.Gordeev , P.V.Volkov, «Tkachestva»-M.Legkaya industriya. 1984 y. 118-136 betlar.
2. R.I. Sumarakova, S.D.Nikolaev i dr.- Texnologiya tkackogo risunka, teorii perepleteniy, patronirovanie. M.M.I. 1984y. 31-40 betlar.
3. P.A. Aleshin, V.I.Poletaev –Laboratorniuy praktikum po tkachestvu M., Legkaya industriya 1979 y. 70-81 betlar.
4. Rozanov F.M. i dr. – Texnologiya tkachestva, chast` 1, M., Lyul., 1966 y. 125-137 betlar.
5. Borodin A.I., Borodin V.A. Podgotovka osnovnoy pryaji k tkachestvu. M.,L.I. 1978 y. 114-168 betlar.

5-TAJRIBA ISHI

OXORLASH MASHINALARINING ISHLASH JARAYONINI URGANISH

Mashgulot o'tkazishdan maqsad:

Oxorlash mashinalari turlarini urganish. Mashinaning asosiy ishchi kismlari bilan tanishib chikish. Jarayonda tanda iplarini chuzilishini kuzatish.

Kerakli jixozlar:

MShB-9/180 oxorlash mashinasi. Tanda galtagi, to'quv navoyi, tayyor oxor.

Mashgulot mazmuni:

Oxorlash jarayonida iplarni chuzilishini

$$B = \frac{(Y_2 - Y_1)}{Y_1} * 100; \%$$

Formula bilan aniklanadi.

MShB-9/180 oxorlash mashinasi texnologik sxemasi chiziladi. Oxorlash mashinasi asosiy ishchi kismlari urganilib, jarayoni taxlil kilinadi.

Tanda iplarni kuritish usuliga karab oxorlash mashinalari bir necha turga bulinadi:

1. Barabanli 2 Kamerali 3 aralash 4 maxsus.

Barabanli kuritish usulida tanda iplari kuritish barabanining issiklik sirt yuzasidan o'tishi xisobiga kuritiladi. Bu usulda MShB-9/140, MShB-11/180, ShB-

9/140, ShB-11/140, ShB-9/180, ShB-11/180, ShB7/140 – ShL-2, ShB-7/180 ShL-2, ShB 9/140- ShL-2, ShB-9/180-ShL-2 (suratdagi rakamlar mashinadagi barabanlar sonini, maxrajidagi esa mashinani ishchi enini kursatadi) markali mashinalar ishlatiladi.

Kamerali usul asosan buyalgan va jun iplarini oxorlashda kullanilib oxorlangan ip kuritish kamerasi ichidagi issik xavo xisobiga kuritiladi va ShKV-180, ShKV-140, ShKV-230 mashinalarida amalga oshiriladi.

Aralash usul ipakchilikda ishlatilib, tanda iplari xam issik xavo, xam barabanlar erdamida kuritilib ikki xil usul bilan kullaniladi va ShB-155-I markali mashinalarda bajariladi (oxiri xarf suni ipak tolalariga ta`lukligini bildiradi.

Maxsus usulda tanda iplari infrakizil nurlar, xavo gazli sistemalar erdamida kuritiladi. Bu usul ishlab chikarishda tadbik etilmagan.

Oxorlash mashinasi tanda galtaglari uchun tirgovuchlar, oxor togorasi, kuritish vali, sikish vali va ajratish, chikarish, o`rash vallari, jamlash va xarakat uzatish kabi asosiy ish kismlaridan tashkil topgan.


Oxorlash mashinasi kismlariga xarakatni taksimlash.

Mashinaning xamma kismlariga uzgarmas tokli ikkita elektrodvigateldan xarakat beriladi. Birinchi elektrodvigateldan mashinani 1 va 2 tortish vallari, kuritish barabanlari, sikish vallari, chikish va taksimlash vallari oladi. Kolgan barcha mexanizmlarga 2 elektrodvigateldan xarakat beriladi.

Tanda iplari birinchi tortish vali 2 erdamida ma`lum taranglik ostida tanda galtagidag 1 chuvalib chikib oxor idishiga 4 ga uzatiladi va sikish vallari ta`sirida ortikcha oxor sikib kolinadi. Tanda iplarini taxtlash jarayonida tortish valini uzib kuyish uchun mashinada kulda boshkariluvchi klochokli mufta urnatilgan. Tortish vali pulat trubadan yasalib, ustgiismi rezina bilan koplangan.



Oxor idishiga iplar chuktiruvchi val 3 erdamida botiriladi va bu valni oxor mikdoriga karab elektrodvigatel bilan yukoriga pastga xarakatlantiriladi.

Oxorlangan ip kuritish zonasiga 6 beriladi va 2 tortish vali 7 keyin ajrativchi chivinlar 8, tanda ip zichligini va enini ta`minlovchi tarokdan 9 utib , 3 tortish vali 10 orkali 11 to`quv galtagiga uraladi.



23-rasm. MShB-9/180 va ShKV-140 oxorlash mashinasining sxemasi.

1-tanda galtagi, 2-1 tortuvchi val, 3- chuktiruvchi val, 4-oxor vannasi, 5-sikuvchi val(1 juft), 6 –kuritish kamerasi yoki vali, 7-2 tortuvchi val, 8-ajratish chiviklari, 9-tarok (tishli katorak), 10-3 tortuvchi val, 11-to'quv galtagi.



24 –rasm. Zukker- Myuller kup barabanli oxorlash mashinasining umumiy tasviri.

Mashinada 18 tagacha tanda valigi urnatilishi mumkin bulib, tezligi 30-150 m/min tashkil kiladi. Bu mashinada keng enli to'quv dastgoxrali uchun to'quv galtagi olinadi (STB, STR,Zul`cer-Ryuti) . Mashinaning afzalligi boshka barabanli oxorlash mashinalariga nisbatan to'quv galtagidagi tanda iplari uzunligi va soni kup buladi.

Oxorlash jareniida tanda iplarining chuziliShi.

Oxorlash jarayonida iplar ma`lum taranglik ostida buladi va bu taranglik bir xil bulishi kerak. Taranglik mashina ishchi organlarining tezliklar farki xisobiga xosil buladi, bu xol iplarning chuzilishiga olib keladi.

Oxorlash jarayonida iplarning chuzilishi kuyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$B=(V2 - V1) 100 /V1, \%$$

V1 - Kiruvchi organ tezligi , M/min

V2 – Chikuvchi organ tezligi, m/mi

Paxta tolalari tanda ipi uchun chuzilishi mikdori 0,7-1,5%

Jun tolali tanda ipi uchun 1-1,5%. Kanop tolali ip uchun 0,5-0,8%

Sun`iy ipak uchun 3-6%. Shtapel` ipi uchun –5%. Jun ipi uchun –1%.

Iplarning chuzilishi mukobil mikdordan kupayib ketsa, tanda iplarining sifati kamayadi, bu xol esa to'quv dastgoxida iplar chuzilishini kupayishga olib keladi.

Chuzilish mikdorini rostlab turish uchun oxorlash mashinasi tenglashtiruvchi mexanizmlar bilan jixozlangan. ShB-9/140 mashinalarda 4ga tenglashtiruvchi

mexanizm urnatilgan. Bu mexanizmlar chuzilishi mikdorini mashinaning kuyidagi zonalarida uzgartiradi:

I - Tortish va sikish vali

II - Sikish vali va kuritish barabanlari

III – Kuritish barabani va 2 tortish vali

IV – 2 tortish vali va chikish vali

Tenglashtiruvchi mexanizmdagi etaklovchi valning tezligi doimiy va uzgaruvchan xarakatlardan tashkil topgan. Tenglashtiruvchi mexanizm erdamida chuzilishni 15% gacha uzgartirish mumkin.

Oxorlash jarayonida iplarning chuzilish va kattikligining oshishi natijasida, ularning uzzayishi kamayadi.

Paxta ipi –30%.

Kanop tolali ip – 13%-16%

Apparat usulida yigirilgan ip-7%,

TAKRORLASH UChUN SAVOLLAR:

1. Oxorlash mashinalarining kanaka turlari bor?
2. Oxorlash mashinasining asosiy ish kismlari kanaka?
3. Iplarni kuritish usullari kanaka?
4. Oxorlash mashinasida xarakat taksimlash kanday buladi?
5. Oxorlashda iplarning chuzilishi kanday aniklanadi?
6. Chuzilish paxta, kanop, apparat iplari uchun kancha buladi?
7. Barabanli oxorlashga kaysi mashinalar kiradi?
8. Kamerali usulda kuritish kaysi oxorlash mashinalarida buladi?
9. Oxorlash mashinasi tezligi kanchagacha buladi?
10. Oxorlash mashinasidagi ajratish chiviklari nima vazifani bajaradi?

TAYaNCh IBORALAR:

To'quv navoy, kuritish kamerasi, val, chivik, tarok, tezlik, baraban, oxoor, kanop, paxta, apparat, tortish vali, chikarish vali, sikish vali.

ADABIETLAR.

1. V.A.Gordeev, P.V.Volkov «Tkachestvo» M.-Legkaya industriya. 1984 y.137-161 betlar.
2. R.I.Sumarakova ,S.D.Nikolaev i dr. « Texnologiya tkackogo risunka, teoriya perepleteniy, patronirovanie» M.M.I. 1984 y. 33-42 betlar.
3. P.A.Aleshin, V.I.Poletaev «Laboratorniy praktikum po tkachestvu» M-Legkaya industriya 1979 y.81-91 betlar.
4. F.M.Rozanov i dr. «Texnologiya tkachestva» chast` 1 M.L.I. 1966 y. 138-156 betlar.
5. Borodin A.I. ,Borodin V.A. «Podgotovka osnovnoy pryaji k tkachestvu» M.L.I. 1978 y. 172-210 betlar.

6-TAJRIBA ISHI

OXORLASH JARAYONINING ASOSIY PARAMETRLARI VA NUQSONLARINI URGANISH

Mashgulot o'tishdan maqsad:

Oxorlash jarayoni parametrlarini urganish. Oxorlash mashinasini tezligi va unumdorligini xisoblash. Jarayonda nuqson va chikindilarni chikishini taxlil qilish

Kerakli jixozlar:

Oxor recepti, chizgich termometr, tayyor oxor.

Mashgulot mazmuni:

Oxorlash jarayonida iplarning chizikli zichligi ip tolasining navi, tuzilishi urilishi, dastgox turi, yigiruv usuli va ipning buralishi katta ta'sir kursatadi. Oxorlash tezligi oxor mashinasining kuritish kobiliyatiga boglik buladi va kuyidagicha aniklanadi:

$$Y_{III} = \frac{Q * 10^6}{n_{III} * T_{III} * a * 60}; \text{ } \mathcal{M} / \text{ } \mu\text{H}$$

Oxorlash kup paraetrli jarayon bulib, bunda tanda iplari fizik-kimeviy va fizik-mexanikaviy ta'surotlarga uchraydi. U iplarning uzilishiga kuyidagilar ta'sir kursatishi mumkin: oxlor tarkibi, xarorati, vallardagi bosim, iplar xarakati tezligi, to'quv galtakga uralgan iplar zichligi, namlik va boshkalar.

Oxorlash jarayonida iplarning chizikli zichligi ip tolasining navi, tuzilishi , urilishi, dastgoxturi, yigiruv usuli va ipning buralishi katta ta'sir kursatadi.

Oxorlash jarayoni parametrlari.

1. Oxor mikdori
2. Oxorlash tezligi
3. Tanda iplari namligi
4. Tanda iplarining chuzilishi
5. Uralash zichligi
6. Oxor recepti
7. Oxor koncentraciyasi
8. Oxor xarorati

Oxor ta'siri.

Yaxshi sifatli tanda ipi olish uchun belgilangan recept asosida tuzilgan oxor kerak buladi. Elim oxorlashning asosiy kursatkichi xisoblanadi. Oxorning kursatkich

darajasi uzgarmas(kuyuk xam, suyuk xam emas) bulishi kerak, shunda to'quv dastgoxida ishlab chikarilgan maxsulotning sifati yaxshi buladi. Vannada esa oxo xamma vakt bir xil satxda tulik bulishi shart. Kup buralgan iplar va past chizikli zichlikdagi iplar, yukori chizikli zichlikdagi ipga karaganda oxorni uziga kam shimiydi.

Ipdan oxorni sikish.

Tanda iplarning elimlashda mexanik faktorlarning ta'siri katta. Agar sikish valining sirti kattik bulsa oxor ipning sirtiga tekis eyilmaydi. Fakat sikish valining bosimni uzgartirish bilan va bunda xar xil iplar uchun receptni bir xil saklab kolib elimlash % ni yaxshilash mumkin. Zamonaviy oxorlash mashinalarida sikish valini rezina bilan koplaydilar. Paxta iplarni oxorlashda kattik rezina bilan koplangan valni 45-50 S gacha isitish mumkin.

Sikish valining bosimi kupgina faktorlarga boglik buladi: iplarni oxorga chuktirish va sikish vaktiga, xaroratga va oxorning koncentraciyasi va boshkalarga. Iplarni bir xilda oxorlanishi uchun 2 kushni iplarning joylashish masofasi 1 xil bulishi kerak.

Oxorlash tezligi.

Oxorlash tezligi oxorlash mashinasining kuritish kobiliyatiga boglik buladi va kuyidagicha aniklanadi:

$$Q \cdot 10^6$$

$$V_{shl} = \frac{\quad}{n \cdot ip \cdot Tip \cdot a \cdot 60} \text{ m/min}$$

$$n \cdot ip \cdot Tip \cdot a \cdot 60$$

Q –kuritish kobiliyati,kg/soat, n ip – tanda iplarining soni,

Tip- ipning chizikli zichligi, teks; a- sikish darajasi.

Oxorni sikish darajasi.

W1- oxor ipining keyingi namligi,

$$W1 - W2$$

$$A = \frac{\quad}{100};$$

$$100$$

W2- tanda ipining kuritish apparatidan utgandan keyingi namligi, %

To'quv galtagidagi iplarning xajmi va uzunligi

To'quv galtagidagi iplarning xajmi, sm.kub.

P H

$$V = \frac{\pi (D_1^2 - d_1^2) H}{4}$$

Bunda,

H1 –galtak gardishlari orasidagi masofa, sm.

D1 – to'quv galtagiga uralgan ipning maksimal diametri yoki gardish 3-5 sm.

d1 – galtak yoki diametri, sm.

To'quv galtakdagi ipning ogirligi, kg.

$$G = V \cdot Y$$

Y – uralishning, sigim zichligi, r. Sm.kub.

To'quv galtakdagi oxorlanmagan ipning ogirligi, kg.

$$G_{\text{yumshok}} = \frac{G \cdot 100}{100 + P}$$

P- elimlash, %

To'quv galtagiga uralgan ipning uzunligi, m

Gyum * 1000

$$L = \frac{G_{\text{yumshok}}}{T \cdot t \cdot n}$$

Tt- tanda ipi chizikli zichligi, teks

n t– tanda iplari soni, dona

Oxorlash mashinasining unumdorligi

$$A = V \cdot 60 \cdot T \cdot n \cdot 10^6 \cdot FVK, \text{ kg/soat};$$

V –oxorlash tezligi, m/min;

Tip – ipning chizikli zichligi, teks;

n ip- to'quv galtagidagi tanda iplarining soni.

Oxorlash jarayondagi nuqsonlar.

O`rama shaklini buzilishi, oxor mikdorini kamayishi yoki kupayishi, rangli iplarni chalkashishi, iflos va doglanishi. (eglanishi va zanglanishi).

Oxorlash jarayonidagi chikindilar.

Oxorlash jarayonidagi chikindilar guruxdagi tanda galtaklarining soni va tanda galtagidagi ipning muvofiq uzunligiga bog'liq bo'lib quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ush = \frac{(K_{t.g} - 1) \cdot 11 + 12 \cdot (K_{t.g})}{L} \cdot 100\%$$

11 - gurux iplarini taxtlash vaqtida kolgan elilangan koldiklar (30 – 40 m)

12 – tanda galtagida ortib kolgan oxorlanmagan uchlar (20 – 50 m);

K t.g- guruxdagi tanda galtaklarining soni;

L t.g – tanda galtagidagi ipning muvofiq uzunligi, m.

Chikindi miqdori ishchining malakasiga, mashinaning texnik sozligiga, oxor sifati va boshqa kuplab faktorlarga bog'liq.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Oxorlash jarayoni parametrlari kanaka?
2. Oxor tanda ipiga kanday ta'sir kursatadi?
3. Ipdan oxor kanday sikiladi?
4. Oxorlash tezligi kanday aniqlanadi?
5. To'quv navayida iplarning xajmi kanday aniqlanadi?
6. To'quv navayiga uralgan ipla uzunligi kanday aniqlanadi?
7. Ipning ogirliги kanday aniqlanadi?
8. Oxorlash mashinasining unumdorligi kanday aniqlanadi?
9. Oxorlash jarayonida kanaka nuqsonlar buladi?
10. Oxorlash jarayonidagi chikindi kanday aniqlanadi?

TAYANCh IBORALAR:

Oxor miqdori, tezlik, zichlik, recept, koncentraciya, xajm, uzunlik, ogirlik, unumdorlik, parametr, nuqson, chikindi.

ADABIETLAR

1. V.A. Gordeev P.V. Volkov «Tkachestva» M.Legkaya industriya. 1984y. 161-170 betlar.
2. Sumarakova, S.D. Nikolaev i dr. – Texnologiya tkackogo risunka, teorii perepleteniy, patronirovanie M.M.I. 1984 y.40-43 betlar.
3. P.A.Aleshin, V.I. Poletaev – Laboratorniuy praktikum po tkachestvu M, Legkaya industriya 1979 y. 91-98 betlar.
4. Rozanov F.M. i dr. – Texnologiya tkachestva, chast` 1 M.,L.I., 1966 y. 156-167 betlar.

7-TAJRIBA ISHI

IP O'tkazish VA ULASH JARAYONLARINI URGANISH

Mashgulot o'tishdan maqsad:

O'tkazish dastgoxi va ulash mashinalari ish jarayonini urganish, uning omillari bilan tanishish, jarayon ish unumdorligini xisoblash.

Kerakli jixozlar:


PS-1 ip o'tkazish dastgoxi, UP-125 ulash mashinasi, tanda iplari.

Mashgulot mazmuni:

Tanda iplari lamel, gula va tigdan utkaziladi va to'quv navoyi xosil kilinadi. Tayyor tanda iplari ulash mashinasi yordamida oldingi tugagan to'quv navoyi tanda iplari bilan birma bir ulanib chikiladi. Iplarni to'quv dastgoxi jixozlaridan o'tkazish ma'lum bir konuniyat asosida olib beriladi.

Oxorlash jarayonida tayyor bo'lgan to'quv galtagining 10-15% o'tkazishga va 80-85 % ulashga yuboriladi. To'quv dastgoxlari, jixozlari (lamela, tig, gula) ishdan chikib kolsa, yangi assortiment ishlab chikarishda, dastgoxlar remont kilinsa, yangi dastgox urnatilsa tanda iplari kulaniladi.

O'tkazish kul usulda bajariladi. O'tkazish dastgoxida 2ta ishchi ishlaydi. Iplarni uzatuvchi va utkazuvchi o'tkazish jarayonida kuyidagi ishlar bajaradi: shoda terish, lamelalarni reykalarga utkazib taxtlash va iplarni lamela, gula teshiklaridan, va tig tishlari orasidan utkaziladi.



25-rasm. O'tkazish dastgoxi PS-1 ning texnologik sxemasi.

1- pronshteyn, 2-lamela, 3-grebinel, 4-gula, 5-tig, 6-val, 7-prujina, 8-pidal`.

Tig tishlari orasidan utadigan iplarning soni ishlab chikarish gan tukimaning tanda buyicha zichligiga boglik buladi. Kupincha tigdan ipni o'tkazishda ikkillamchi ilmok kullaniyadi. Bunda ish unumdorligi soatiga 2000 tagacha ip utkaziyadi. Birlamchi kruchok kullaniyadi ish unumdorligi soatiga 600-1000 ta ip ukaziyadi.

O'tkazish avtomati «BARBER KOL`MAN» (SShA) firmasida mavjud bulib, unda chizikli zichligi 8,5-teksdan –500 teksgacha bo'lgan iplar utkaziyadi. Avtomatda 26-gacha remizdan iplar o'tkazish mumkin.

O'tkazish tezligi ish xolatida –140 ip/min da, tinch xolatda-20 ip/min da utkaziyadi

Xakikiy ish unumdorligi 3500-5000 ip/soatiga utkaziyadi. Bu usulda ip o'tkazish yapalok gulalar va maxsus konfigurali lamelalar kullaniishi mashina keng kullaniyishini chegaralaydi.

To'quv dastgoxi jixozlari.

Lamel – tanda ipini nazorat kiluvchi bulib tanda ipi uzilganda to'quv dastgoxini tuxtatish uchun foydalaniladi. Lamellar tukimadagi ipning chizikli zichligiga karab tanlanadi va tanda iplar soniga teng buladi. Lamellar reykalarga urnatib reykalarning soni lamellar zichligiga boglikdir. Lamellar soni:

$$n l = n \text{ ip}$$

$$P l = \frac{n a}{V p.r. * m a.r.} \leq P a \text{ lam/sm:}$$

n- lamellar soni;
m l.r – reykalarning soni;
V l.r – lamel reykalarning eni, sm;
P l – ruxsat etilgan lamellar zichligi, tanda iplarning chizikli zichligiga karab tandalanadi;
N ip – tanda iplari soni;
Gula – aloxida shodalarga terilgan bulib, tanda iplarni urta xolatdan kutarib-tushirish, ya`ni xomuza qilish uchun xizmat kiladi.

Taxtlashdagi gulalar soni:

$$G = P \text{ ip} + n z$$

Gulalar zichligi:

$$P 2 = \frac{P \text{ ip}}{z sh * B sh} \leq P a \text{ lam/sm,}$$

z sh – taxtlashdagi shodalarning soni;
n z - zaxira ipi (zapas) 10 ta;
Vsh – shodalarning eni, sm.

Tigning vazifasi arqoq ipining tukima chetiga urish. Tukimani tig buyicha enini, tanda buyicha esa zichligini belgilaydi.

Tig nomeri N tig deb, 1 decimetrغا tugri keladigan tig ishlari soniga aytiladi va kuyidagicha topiladi:

$$N \text{ tig} = \frac{Z}{B} * 100$$

Z – tig tishlari soni

Bt – tig eni, sm.

Tanda iplarini o'rash.

Ulash maxsus mashinalarda amalga oshiriladi va ular uch xil buladi: 1- kuzgalmas (US), 2- kuchma (UP), 3 – aralash (universal).

Iplarni ulash uchun eski va yangi tanda iplarni bittadan ajratib olinadi. Ip ajratishni quyidagi usullari mavjud:

1. Ignali.
2. Chutkali.
3. Xavoli.

Kuzgalmas ulash mashinasi o'tkazish cexida urnatiladi To'quv dastgoxidan lamela, gula, tigni utkazilgan eski iplar bilan birgalikda Kirkib olinib, o'tkazish cexiga keltiriladi va yangi ipni tugunlaydi va tugunlar ostonasidan oraliklardan tortib utkaziladi.

Kuzgaluvchan ulash mashinasi tugridan-tugri to'quv dastgoxida tugab kolgan tanda imi uchini yangi to'quv galtagidagi ipning uchi bilan boglaydi.

Universal ulash mashinasi uz urni bilan kuzgalmas yoki kuzgaluvchan tugun boglash vazifasini bajaradi.

O'tkazish va ulash mashinalarining unumdorligi.

Tugun boglovchi mexanizmi bitta tugun boglashi asosiy valini ikki marta aylanishiga vaktiga tugri keladi.

1. Ulash mashinasining bir soatdagi xakikiy unumdorligi:

$$A_x = \frac{V * 60 * G_x}{n * t} \text{ kg/soat}$$

V – tugun boglanish tezligi, tugun/min;

G_x –galtakdagi ipning ogirligi, kg;

n t – iplar soni;

Iplarni o'tkazishda PS –140, PSM –240 dastgoxlari kullanilib unumdorlik ishchi malakasiga karab 1000-2000 ip/soat ni tashki kiladi.

$$P_{xy} = \frac{n * 60}{2} \text{ FVK ip/soat}$$

O'tkazish jarayondagi chikindilar.

$$U = \frac{1}{L * n} * 100 \%$$

1 –chikindi iplar uzunligi, (0,4-0,6m);

L n – to'quv galtagidagi ipning muvofik uzunligi, m

Ullash jarayonidagi chikindilar

$$U = (11 + 12 + 13) * 100 / L * t.g \%$$

11 –ulagandan keyingi koldik iplar uzunligi, (0,2 m);

12 – kiskichdagi ip uzunligi, (0,5m);

13 – tugunlarni o'tkazishdagi iplar uzunligi, (1,2 m);

L n - taukuv galtagidagi ipning muvofik uzunligi, m.

O'tkazish jarayonida uchraydigan nuqsonlar.

O'tkazish jarayonida tig tishlarining bush kolishi, kushalok iplar, urilishni buzilishi, iplarni koldirib ketish, ikkita ipni kushib olish va boshka shu kabi nuqsonlar buladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Tanda iplarini o'tkazish va ulashning maqsadi nimadan iborat?*
2. *Necha % tanda iplar o'tkazishga yuboriladi?*
3. *Necha % tanda iplar ulashga yuboriladi?*
4. *Kanaka o'tkazish va ulash mashinalari mavjud?*
5. *O'tkazish to'quv datgoxining kaysi kismlarida bajariladi?*
6. *Tig nomeri kandy aniklanadi?*
7. *Ulashda ip ajratish kanaka usullarda bajariladi?*
8. *O'tkazish va ulash mashinalarining unumdorligi kandy aniklanadi?*
9. *O'tkazish va ullahda chikindilar mikdori kandy aniklanadi?*
10. *O'tkazishda uchraydigan nuqsonlar kanaka?*

TAYaNCh IBORALAR:

O'tkazish, ulash, ip, tig, lamela, gula, val, kronshteyn, prujina, reyka, zichlik, shoda, tugun, unumdorlik, chikindi, nuqson, parametr.

ADABIETLAR:

1. V.A. Gordeev, P.V. Volkoov «Tkachestva» M. Legkaya industriya. 1984 y. 171-183 betlar.
2. R.I. Sumarakova, S.D.Nikolaev i dr. – Texnologiya tkackogo risunka, teorii perepleteniy, patronirovanie M.M.I. 1984 y. 42-47 betlar.
3. Aleshin P.A., Poletaev V.I. – Laboratorniuy praktikum po tkachestvu M, Legkaya industriya 1979 y. 98-112 betlar.
1. Rozanov F.M. i dr. – Texnologiya kachestva, chast` 1., M.L.I. 1966 y. 168-187 betlar.

Mundarija

Kirish	3
1- TAJRIBA ISHI.....	5
2- TAJRIBA ISHI.....	20
3- TAJRIBA ISHI.....	26
4- TAJRIBA ISHI.....	32
5- TAJRIBA ISHI.....	36
6- TAJRIBA ISHI	40
7- TAJRIBA ISHI.....	44

«Texno - tasvir» bosmaxonasi
Buxoro sh. Murtazoyev ko`chasi 15 uy
513 xona. Tel. 223-18-02
Buyurtma _____ nusxa
2008 yil.